HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

THE TRUTH OF LIFE IN THE STORY OF OTKIR HASHIMOV "CORRECT"

Faculty of Philology, UrDPI
Department of Uzbek Language and Literature
3rd year student
Sultanmuratova Jennet Mardon kizi
jannatsultanmuratova@gmail.com
https://orcid.org: 0009-0001-6940-1641

O‘TKIR HOSHIMOVNING “TASODIF” HIKOYASIDAGI HAYOT HAQIQATI

UrDPI Filologiya fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
Sultanmuratova Jennet Mardon gizi
jannatsultanmuratova@gmail.com
https://orcid.org: 0009-0001-6940-1641

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Tasodif” hikoyasi tahlil qilinadi. Hikoyada tasvirlangan voqealar mazmuni yoritilib, asarda ilgari surilgan hayotiy haqiqatlar ochib beriladi. Qahramonlar taqdiri misolida insonning hayot yo‘lida duch keladigan sinovlari, qabul qilgan qarorlari va ularning oqibatlari tahlil etiladi. Ayniqsa, umr yo‘ldosh tanlash masalasi asarning muhim g‘oyaviy qatlamlaridan biri sifatida baholanadi. Muallif oila baxti va inson taqdirida er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr va sadoqatning nechog‘li muhim ekanligini badiiy voqealar orqali ko‘rsatadi. Hikoya tahlili jarayonida yaxshi rafiqaning turmush o‘rtog‘i uchun ishonchli suyanch, ruhiy madad va oilaviy baxt manbai bo‘la olishi, yomon fe’l-atvorli rafiqaning esa inson hayotiga tashvish, iztirob va ma’naviy og‘irlik olib kirishi misollar asosida yoritiladi. Asarda oiladagi muhitning inson xarakteri, ruhiyati va kelajagiga ta’siri hayotiy lavhalar orqali ochib beriladi. Shuningdek, hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati, insonlarni to‘g‘ri tanlov qilishga, oilaviy qadriyatlarni qadrlashga va hayot saboqlaridan xulosa chiqarishga undovchi jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada asarning badiiy va ma’naviy qimmati yoritilib, muallifning inson, oila va jamiyat haqidagi qarashlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: oila, rafiqa, ma’naviyat, haqiqat, munosabat, farzand, tasodif, beparvolik.

Аннотация. В данной статье анализируется рассказ Откира Хошимова “Совпадение”. Выделяется содержание событий, описанных в рассказе, и раскрываются жизненные истины, выдвинутые в произведении. На примере судьбы героев анализируются испытания, с которыми человек сталкивается на своем жизненном пути, принимаемые им решения и их последствия. В

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

частности, оценивается вопрос выбора спутника жизни как один из важных идеологических пластов произведения. Автор посредством художественных событий показывает, насколько важны взаимное уважение, любовь и верность между супругами для семейного счастья и судьбы человека. В процессе анализа рассказа на примерах иллюстрируется, что хорошая жена может быть надежной опорой для мужа, источником духовной поддержки и семейного счастья, в то время как жена с плохим характером приносит в жизнь человека тревогу, страдания и духовное бремя. Произведение через жизненные сцены раскрывает влияние семейной среды на характер, психику и будущее человека. Также анализируется воспитательная ценность рассказа, его мотивация к правильному выбору, уважению к семейным ценностям и извлечению жизненных уроков. В статье подчеркивается художественная и духовная ценность произведения, а также раскрываются взгляды автора на человека, семью и общество.

Ключевые слова: семья, жена, духовность, правда, отношения, ребенок, совпадение, небрежность.

Abstract. This article analyzes the story “Coincidence” by Otkir Hoshimov. The content of the events described in the story is highlighted and the life truths put forward in the work are revealed. Using the example of the fate of the heroes, the trials that a person faces on his life path, the decisions he makes and their consequences are analyzed. In particular, the issue of choosing a life partner is evaluated as one of the important ideological layers of the work. The author shows through artistic events how important mutual respect, love and loyalty between a spouse are in family happiness and the fate of a person. In the process of analyzing the story, it is illustrated on the basis of examples that a good wife can be a reliable support for her husband, a source of spiritual support and family happiness, while a wife with a bad character brings anxiety, suffering and spiritual burden to a person’s life. The work reveals the influence of the family environment on a person's character, psyche and future through life scenes. The educational value of the story, its motivation to make the right choice, appreciate family values, and draw conclusions from life lessons are also analyzed. The article highlights the artistic and spiritual value of the work, and reveals the author’s views on man, family, and society.

Keywords: family, wife, spirituality, truth, relationship, child, coincidence, negligence.

Inson hayotga faqat bir marta keladi. Biroq har kim ham shu qisqa va takrorlanmas umrning qadriga yetavermaydi. Ba’zan inson o‘zidagi ne’matlarni unutib, boridan ko‘ra yo‘g‘iga ko‘proq e’tibor qaratadi. Ayniqsa, oilaviy hayotda shukronalik tuyg‘usining yo‘qolishi, tinimsiz norozilik va e’tirozlar oila mustahkamligiga rahna soladi. Oila a’zolari o‘rtasidagi mehr, hurmat va minnatdorlik hissi so‘ngan joyda esa ma’naviy tanazzul boshlanadi. Ana shunday achchiq hayotiy haqiqat O‘tkir Hoshimovning “Tasodif” hikoyasida ta’sirchan badiiy vositalar orqali ochib beriladi. Hikoyaning bosh qahramoni Ochil Xudoyqulov halol mehnati bilan kun kechiradigan, oilasi uchun tinimsiz zahmat chekadigan inson sifatida tasvirlanadi. U topgan-tutganini uyiga olib kelib, oila farovonligi uchun xizmat qiladi. Ammo uning rafiqasi Lola erining mehnatini qadrlash o‘rniga doimo undan kamchilik izlaydi, har bir ishidan ayb topadi. Hatto tayyorlab bergan taomiga ham minnat qiladi. Natijada uyda hukm surayotgan doimiy e’tiroz va norozilik muhiti Ochilning ruhiy olamiga ham salbiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Yillar davomida xotinining tinimsiz dakki va e’tirozlarini eshitib yashagan Ochil asta-sekin o‘zining ichki xotirjamligini yo‘qotadi. Avvallari hayotga real ko‘z bilan qaraydigan inson bora-bora turli xayollarga beriladigan, oilasidagi muammolarni qanday hal qilishni o‘ylayveradigan bo‘lib qoladi. Uning qalbida ruhiy bosim kuchayib, fikrlari tarqoqlashadi. Xotini bilan navbatdagi janjaldan keyin ishxonaga ketayotganida ham uning xayolini turli tashvishlar va iztiroblar band etadi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Shu sababli ehtiyotsizlikka yo‘l qo‘yib, qo‘lini arra bilan kesib oladi. Aslida bu voqea oddiy baxtsiz hodisadek tuyulsa-da, uning ildizida uzoq yillar davomida yig‘ilib kelgan ruhiy zo‘riqish va oiladagi nosog‘lom muhit yotgan edi. Muallif shu voqea orqali oiladagi ma’naviy muhit inson taqdiriga qanchalik kuchli ta’sir ko‘rsatishini badiiy jihatdan ochib beradi. Lola obrazi nafaqat bir ayolning xarakterini, balki shukronalikni unutgan, boridan rozi bo‘lmaydigan insonlarning umumlashma timsoli sifatida gavdalanadi. Uning qiliqlari tufayli nafaqat erining ruhiy dunyosi izdan chiqadi, balki butun oilaning osoyishtaligi ham xavf ostida qoladi. Turkman xalqining buyuk shoiri Maxtumquli quyidagi hikmatli so‘zlarni bejizga aytmagan: “Do‘zaxning timsoli bir yomon xotin”[1.13]. Bu fikr ayollarning barchasiga nisbatan emas, balki oiladagi mehr-muhabbatni qadrlamaydigan, erining hurmati va mehnatini mensimaydigan, doimiy janjal va norozilik bilan yashaydigan kimsalarga nisbatan aytilgan. Chunki bunday ayol oila o‘chog‘ini mehr maskaniga emas, ruhiy azob manbaiga aylantiradi. Uyga quvonch olib kirishi kerak bo‘lgan inson aksincha, xonadonga g‘am-g‘ussa olib kiradi. Natijada oiladagi iliqlik yo‘qoladi, qalblar o‘rtasidagi yaqinlik so‘nadi. Shuning uchun ham xalqimiz azaldan oqila, sabrli va shukrli ayolni oilaning ustuni deb bilgan. Zero, yaxshi rafiqa erining og‘irini yengil qilsa, yomon rafiqa uning hayotini iztirob va tashvishlarga to‘ldirishi mumkin. Hikoyadagi Lola obrazi ham aynan mana shu haqiqatni tasdiqlovchi salbiy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif ushbu obraz orqali o‘quvchini oila baxtining asosi o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat va shukronalik ekanligi haqida chuqur mushohada yuritishga undaydi. Lola oilaning naqadar muqaddas ekanligini anglab yetmadi. Bu bilan farzandini ham, o‘zini ham baxtsizlik botqog‘iga itardi. Oila — inson hayotining eng muqaddas maskani, mehr-muhabbat, sadoqat va ishonch ildiz otadigan mo‘tabar qo‘rg‘ondir. U nafaqat bir tom ostida yashovchi insonlarni, balki qalblarni bir-biriga bog‘laydigan ma’naviy rishtadir. Oilada hukm surgan totuvlik va mehr insonning ruhiy kamoloti, baxti hamda hayotga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shu bois oila har bir inson uchun osoyishtalik, dalda va baxt manbai hisoblanadi. Zotan, oiladagi muhabbat va o‘zaro hurmat qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyatning ma’naviy poydevori ham shunchalik barqaror bo‘ladi. Shu o‘rinda Prezidentimizning quyidagi jumlalarini keltirib o‘tamiz. “Oila muqaddas. Muqaddasligi shundaki, avvalo, oila qancha mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shuncha barqaror bo‘ladi” [3]. Darhaqiqat, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, oila jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Oilada mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va ahillik hukm sursa, unda voyaga yetayotgan farzandlar ham komil inson bo‘lib kamol topadi. Shu bois oilani asrash, uning muqaddasligini qadrlash har bir insonning muhim burchidir.

Hikoyani o‘qish jarayonida yaxshi umr yo‘ldosh tanlash hamma narsadan muhim ekanligiga amin bo‘lamiz. Axir u bilan butun umr birga yashaymiz, dardimiz, quvonch-u g‘amimizni bo‘lishamiz. Yaxshi rafiqa erining tayanchidir. Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor kabi ijodkorlarimizning rafiqalari yaxshi bo‘lgani uchun ham ular ho‘b va ko‘p ijod qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. So‘zimiz isboti sifatida Said Ahmadning quyidagi so‘zlarini keltirishimiz mumkin: “Oybek xotindan yolchigan odam edi. Zarifaxonimdek fidoyi ayolni kitoblarda ham uchratmaganman. U butun umrini Oybekka bag‘ishladi. U Oybek deb yashadi” [2.19]. Darhaqiqat, buyuk yozuvchi Oybekning rafiqasi fidoyi bo‘lgani uchun ham u kasal chog‘ida ham ijod qilishdan to‘xtamadi. Chunki ayoli unga ham jismoniy, ham ruhiy yordam berayotgan edi.

Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimovning “Tasodif” hikoyasi inson hayoti, oila va ma’naviy qadriyatlar haqidagi chuqur hayotiy haqiqatlarni yoritib beruvchi ta’sirchan asarlardan biridir. Hikoya orqali muallif oiladagi muhitning inson ruhiyati, taqdiri va kelajagiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini badiiy jihatdan ishonarli tasvirlaydi. Asarda tasvirlangan voqealar insonni o‘z hayotiga, oilasiga va yaqinlariga nisbatan mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishga undaydi. Umr yo‘ldosh tanlovi inson taqdirini belgilovchi eng muhim qarorlardan biridir. Yaxshi rafiqa oilaning tayanchi, erining ruhiy madadkori va baxt manbai bo‘lsa, yomon xarakter va doimiy norozilik oiladagi totuvlikka putur

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

yetkazadi. Muallif o‘quvchini oilaning muqaddasligini anglashga, mehr va sadoqatni qadrlashga, har bir qarorning oqibatini chuqur mushohada qilishga chorlaydi. Shu jihatdan “Tasodif” hikoyasi nafaqat badiiy-estetik, balki katta tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan asar sifatida alohida qimmat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maxtumquli. Dunyo o‘tib boradir. - Toshkent: Matbaa aksiyadorlik komponiyasi bosh tahririyati, 2007
2. Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. - Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000
3. Xalqaro oila kuni munosabati bilan videoselektor yig‘ilishidagi nutq, 15 may 2025 yil.
4. O‘tkir Hoshimov. Tasodif. - Toshkent: Nurli dunyo nashiryot uyi, 2023